

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

2020 Vol. 2

**ALISHER NAVO‘I TASHKENT STATE UNIVERSITY OF THE UZBEK
LANGUAGE AND LITERATURE**

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o‘rinbosari: Zaynobiddin Abdirashidov

Mas‘ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboyev, Samixon Ashirboyev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Baxtiyor Mengliyev, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, Ulug‘bek Hamdamov, G‘aybulla Boboyorov, Qosimboy Ma‘murov, Nozliya Normurodova, Venera Qayumova, Abdi Mamatov.

Tahrir hay‘ati

Frederik Bressand (Fransiya)	Shahid Tasleem (Hindiston)
Ingeborg Baldauf (Germaniya)	Almaz Ülvi (Ozarbayjon)
Homid Abbas Xan (Saudiya Arabistoni)	Vahit Türk (Turkiya)
Rochelle Almeida (AQSH)	Abdulvahap Kara (Turkiya)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Mustafa Kachalin (Turkiya)
Valeriy S. Xan (O‘zbekiston)	Timur Kocaoğlu (AQSH)
Xisao Komatsu (Yaponiya)	Ishtvan Zimoniy (Vengriya)
Gürer Gülsevin (Turkiya)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Ingyong O (Janubiy Koreya)	Dilorom Ashurova (O‘zbekiston)
Dilnoza Duturayeva (O‘zbekiston)	Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)
Ashirbek Mo‘minov (Qozog‘iston)	Shodmon Vohidov (Tojikiston)
Rustam Suleymanov (O‘zbekiston)	Darya Jigulskaya (Rossiya)

“O‘zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san‘at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o‘rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal. Jurnal bir yilda to‘rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko‘rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g‘oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e‘lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e‘lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: editor_uzlc@gmail.com

Website: www.uzlc.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Inomjon Azimov

Ashurali Zohiriy va Elbekning milliy fonetika xususidagi qarashlari.....6

Zaynabidin Abdirashidov

Mahmudxo‘ja Behbudiyning tilshunoslikka oid tadqiqotlariga doir.....24

U Ayjun

“Bir makon, bir yo‘l”ga xizmat ko‘rsatuvchi strategik tillar.....38

Adabiyotshunoslik. Tarjimashunoslik

Akromjon Dehqonov

“Saloti Mas‘udiy” – Muhayyir tarjimasida.....47

Tarix. Manbashunoslik

Gaybulla Babayarov, Tatyana Abbasova

Islomdan oldingi Buxoroning qo‘shaloq tasvirli tangalari.....57

Etnologiya. Etnografiya. Antropologiya

Sherzod Iskandarov

O‘zbekiston arablarining til xususiyatlari va etnolingvistik o‘zgarishlar.....88

**ETNOLOGIYA. ETNOGRAFIYA. ANTROPOLOGIYA
ETNOLOGY. ETHNOGRAPHY. ANTROPOLOGY**

Sherzod Iskandarov

(Toshkent, O'zbekiston)

iskandarov54@mail.ru

O'zbekiston arablarining til xususiyatlari va etnolingvistik o'zgarishlar

Abstrakt

Mazkur maqolada O'zbekistonda yashovchi arablarining etnomadaniy identikligi (etnik o'zligini anglash) va madaniyati etnografiyasi, shuningdek, O'zbekistonning turli hududlarida yashovchi arablarda kechgan etnolingvistik o'zgarishlar bilan bog'liq jihatlar qiyosiy tahlil etildi.

XX asrning o'rtalariga qadar Rayimso'fi, Xo'jaquduq, Andabozor, Boyterak, Darcha, Qanotli, Bo'rixona, Pistali, Nomard, Olachabop, Og'zikeng singari o'nlab qishloqlarda arab tilining mahalliy shevasi saqlangan. Biroq bugungi kunda bu qishloqlarda arab tili bilan bir qatorda o'zbek tili jonli muloqot tili hisoblanadi. Arablar mahalliy xalqlar o'zbek, turkman, tojiklar bilan yaqin munosabatda yashab kelishgan. Shuningdek, ular etnik o'zligini anglashi, ya'ni o'zini boshqalardan "biz va ular" deb ajratgan holda etnomilliy qadriyatlarni ham unutishmagan. Jumladan, Jeynov, Jugari, Chahdari kabi qishloqlarda arablarning etnomaniyati va til xususiyatlari, Jeynov qishlog'ida esa musiqa va raqs san'ati yaxshi saqlangan. Bu qishloqda tashkil etilgan "Al-arabiy" ansamblining boy repertuari misolida yaqqol kuzatiladi.

Kalit so'zlar: etnomadaniy, etnolingvistik, etnografiya, etnik o'zlikni anglash.

Linguistic features and ethnolinguistic changes of the Uzbekistan Arabs

Abstract

This article analyzes the ethnocultural identity (understanding of ethnic identity) and cultural ethnography of the Arabs living in Uzbekistan, as well as the specifics and commonalities of the Arabs residing in the different regions of Uzbekistan in relation to ethnolinguistic changes on

the basis of comparative data.

Until the mid-50s of the twentieth century, the local dialect of Arabic was in use in dozens of villages, such as Rayimsofi, Khojakuduk, Andabozor, Boyterak, Darcha, Qanotli, Borikhana, Pistali, Nomard, Olachabop, Ogzikeng. Today, however, the Uzbek language is used as the language of daily conversation and live communication, although some forms of Arabic have survived in the above-mentioned Arab villages.

The Arabs have lived in close relationship with the local peoples as the Uzbeks, the Turkmen, and the Tajiks. Self-awareness is the ability to understand oneself, to understand one's ethnic identity, namely to stand out from others as «we and they» and to preserve ethno-national values. In particular, in the villages such as Jeynov, Jugari, Chahdari the ethnicity, linguistic features and ethnolinguistic aspects of the Arabs have been preserved. In the formation of the identity of the Arabs in Uzbekistan, the peculiar language, music and dance, which are specific to the Arabs are very well preserved only in the village of Jeynov. This is clearly seen in the rich repertoire of the Al-Arabi ensemble formed in the village.

Key words: ethnocultural, ethnolinguistic, ethnography, understanding of ethnic identity.

Kirish

XX asr dunyo tarixida globallashuv, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar davri tarzida tarixda qoldi. Ayniqsa, xalqlarning turmush tarzi va etnografiyasi, moddiy-madaniy hayot tarzini o'rganishga katta e'tibor qaratildi. Yurtimizda necha asrlardan buyon yashab kelayotgan turli millat vakillari orasida O'zbekiston arablarining ham etnomadaniy identikligi (etnik o'zligini anglash) va madaniyati, an'analarini o'rganish fanning muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda arab xalqi madaniyatiga xos xususiyatlar haqida muhim ma'lumotlar qayd etilgan. Arab xalifaligi davrini tadqiq etgan olim O. G. Bolshakov arablar O'rta Osiyoga arab tilini ham olib kirganligini ta'kidlaydi. Abbosiylarning taxtga chiqishi musulmon olamida arab tilining yanada keng tarqalishiga sabab bo'ldi, deydi. O'sha davrdan boshlab butun xalifalik hududlarida islomlashtirish va arab tilini kengroq yoyish boshlangan [Болшаков 1982, 5]. Demak, abbosiylar davrida arab madaniyati O'rta Osiyoda ham keng tarqala boshlagan. Xalifalik hududidagi xalqlar bir-birlarining madaniyati va qadriyatlarini o'zlashtirib, turmush tarziga ham ta'sir ko'rsatgan. Arablar keyinchalik mahalliy xalqlar bo'lgan o'zbek, turkman, tojiklar bilan yaqin munosabatda yashab kelganlar.

Muayyan etnosga mansublikning zaruriy omillaridan biri bu – o‘z-o‘zini anglashdir. O‘zini anglash kishining etnik o‘zligini anglashi, etnomilliy qadriyatlarni saqlashi va uni kelajak avlodga yetkazishi hisoblanadi. Tarixdan ma‘lumki, jamiyatga turfa munosabatda bo‘lish jarayonida kishi o‘zini muayyan guruhga mansub deb hisoblaydi. Kishilar jinsiy, kasbiy, yosh, sinfiy, etnik va hokazo guruhlarga mansublik xususiyatiga ega. Aynan etnik o‘zlikni anglash tufayli kishi o‘zini boshqa bir kishi bilan taqqoslay oladi hamda muayyan etnik guruh vakili ekanligini farqlaydi. Etnik o‘zlikni anglash, asosan, kishining muayyan etnosga xosligini tan olishidir.

Etnolingvistik xususiyatlarning saqlanishi

Tarixiy-etnografik adabiyotlardan ma‘lumki, etnik o‘zlikni anglashning asosiy omillaridan biri til hisoblanadi. Jumladan, V. I. Kozlov etnik jamoaning asosiy belgilarini quyidagicha izohlagan: “Etnik o‘z-o‘zini anglash va o‘z milliy nomiga ega bo‘lishlik til, hudud, psixik xususiyatlar, madaniyat va maishiy turmush, ijtimoiy-hududiy tashkilotlarning ma‘lum shakllaridir...” [Козлов 1967, 111].

Etnolingvistika sof lingvistik yo‘nalish sifatida XX asrning birinchi choragida shakllandi. Uning asoschisi sifatida F. Boas [Кахарава 2009, 13] e‘tirof etiladi. F. Boas asos solgan etnolingvistikaning bosh vazifalaridan biri hindu qabilalarining genetik qarindoshligi masalasini aniqlash edi. Har bir xalqning birlamchi etnik o‘zlikni anglash omillaridan biri uning tarixi va tili hisoblanadi. Etnografik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, xalqlarning etnik o‘zligini anglashida turmush tarzi, an’anaviy madaniyati, shuningdek, tili katta ahamiyatga egadir. Xususan, ularning til bilan bog‘liq jihatlarini tahlil etish eng muhim masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda yashab kelayotgan arablar va ularning lingvistik o‘ziga xos xususiyatlari borasida I. N. Vinnikov, G. V. Sereteli, N. Burikina, M. Izmaylova, G. Chikovani, M. Saidov, P. Ravshanov, R. Rajabov kabi olimlar tomonidan tadqiqotlar borilgan [Бурькина, Измайлова 1930; Церетели 1956; Чиковани 1988, 70–77; Саидов, Равшанов 1996, 202; Ражабов 2011, 128; 2012, 416]. Olimlar O‘zbekistonning turli mintaqalarida yashovchi arablarning tilidagi o‘ziga xoslik va umumiylik jihatlarini o‘zaro qiyosiy tahlil qilishgan.

XX asrning 30-yillarida N. N. Burikina va M. M. Izmaylovalar O‘zbekistonning janubiy hududlarida kashf etilgan yangi arab tili dialektlarini favqulodda ahamiyatga molik dalillar sifatida baholashgan. Arabshunos olim akademik I. Y. Krachkovskiy ta‘biri bilan aytganda, aynan mazkur tadqiqotlarda bildirilgan fikrlar, ya‘ni

O'zbekiston arablarining shevasi bebaho ilmiy qimmatga ega ekanligi haqidagi qarashlar arab shevashunosligida bir qadar burilish yasanidan darak beradi [Чиковани 1988, 3]. Olimning tadqiqot ishlari arab shevashunosligi va arab tilini o'rganishga bag'ishlangan. Uning ilmiy-tadqiqotlari tahlili shuni ko'rsatdiki, arab tilining O'rta Osiyoda bugungi kunga qadar saqlanib qolishi noyob hodisadir. Shuningdek, ayrim arab qishloqlarida o'ziga xos etnomadaniy etnik o'zlikni anglash kuzatiladi. Buning o'ziga xos muhim sabablaridan biri arab xalqining alohida yashab kelganligi ham bo'lishi mumkin. Chunki ularni katta qismi chorvachilik bilan shug'ullangan. Masalan, Qashqadaryo viloyati Po'lati va unga tutash bo'lgan Rayimso'fi, Xo'jaquduq, Andabozor, Boyterak, Darcha, Qanotli, Bo'rixona, Pistali, Nomard, Olachabop, Og'zikeng singari o'nlab qishloqlarda arab tilining mahalliy shevasi saqlanib qolgan [Рўзимуродов, Райҳонов, Ҳамроев 2000, 14–15]. Arablar shevasiga xos xususiyatlar, asosan, Po'lati va unga yaqin joylashgan qishloqlar Olachabop, Rayimso'fi, Bo'rixona aholisi tilida qisman uchraydi [Ражабов 2012, 56]. Biroq bugungi kunda yuqoridagi nomlari qayd etilgan arab qishloqlarida arab tilining ayrim ko'rinishlari saqlanib qolgan bo'lsa-da, o'zbek tili jonli so'zlashuv va muloqot tili bo'lib qolgan.

O'zbekiston arablarining mintaqada yuz bergan etnomadaniy jarayonlarda ishtiroki ikki tomonlama borgan. Birinchidan, ular asrlar davomida mintaqaning mahalliy aholisi orasiga singib, assimilyatsiya jarayonlariga tortilgan bo'lsalar, ularning bir qismi etnik o'zlik (identikligi)ni saqlab qolganlar. Bu, ular orasida haligacha o'zlarini arab deb e'tirof etuvchi yoki ona tillarini qisman saqlab qolgan aholi guruhining mavjudligida o'z ifodasini topadi [Ражабов 2012, 161–162].

XX asrda sovet tuzumining siyosati natijasida sobiq ittifoq tarkibidagi millatlarning tillari ta'zyiq ostiga olindi. Ayniqsa, arab tili va alifbosida yaratilgan yozma yodgorliklarning yo'q qilinishi, yozuvda arab alifbosining lotin va keyinchalik kirill alifbosiga almashtirilishi nafaqat o'zbek xalqi balki, arablarning ham til xususiyatlariga salbiy ta'sir o'tkazgan. Bu davrda yosh avlodning sovet maktablarida yangi alifbo lotin va keyinchalik kirill alifbosida savod chiqarishi, o'zbek adabiy tili normalarining hayotga tatbiq etilishi eski o'zbek yozuvi, tili va shu bilan birgalikda arab tilining ham kundalik muloqotdan asta-sekinlik bilan chiqib ketishiga sabab bo'ldi.

Dala tadqiqotlari natijasida Qashqadaryo viloyatining Jeynov va Po'lati qishloqlarida arab tilining og'zaki elementlari saqlanib

qolganligini kuzatdik. Keksa yoshli axborotchilarning ta'kidlashicha, ilgari ularning ota-onalari, bobolari o'zaro arab tilida so'zlashishgan. Hozirgi katta avlod vakillari orasida ham qisman arab tilining ayrim so'zlashuv elementlari saqlanib qolganini ko'rish mumkin. Respondentlarning arab tilini qay darajada bilishi haqida savol berganimizda ularning 83 foizi bilmayman deb javob bergani holda 17 foizi qisman bilishini aytib o'tgan.

Ilmiy tahlillar natijasida shuni qayd etish mumkinki, arablarning bugungi kunda ham etnik o'zlikni anglashining asosiy omillaridan biri o'z ona tilini unutmay saqlab qolganidir. Haqiqatan ham har bir xalqning tarixi bilan bog'liq jarayonni tahlil etish asnosida ularning o'ziga xos lokal milliy xususiyatlariga ham e'tibor qaratish lozim. Arablar o'z ona tilini yillar o'tishi bilan unuta boshlagan. So'rovnoma natijalarida arab yoshlari orasida arab tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj yo'qligi ma'lum bo'ldi. Chunki maktablarda o'zbek tilidagi darsliklardan foydalanilishi hamda arab tilining fan sifatida o'rgatilmagligi kabi omillar arab farzandlari orasida tobora ushbu tilning muloqot vositasidan chiqib ketishiga sabab bo'lgan.


Arablar yillar davomida mintaqaning mahalliy aholisi orasiga singib, assimilyatsiya jarayonlariga tortilgan bo'lsa-da, ularning bir qismi etnik o'zligini (identikligini) saqlab qolgan. Jumladan, Navoiy viloyati Navbahor tumaniga qarashli Arabxona qishlog'i hududida istiqomat qilib kelayotgan keksa kishilarning aksariyati oldinlari arab tilida gaplashishgan. Hozirgi kunda ularning ko'pchiligi arab tilini unutib, o'zbek va tojik tilida muloqot qilishadi. Jugari qishlog'ida istiqomat qilib kelayotgan aholi esa tojik, o'zbek, arab tillarida gaplashadi. Suhbatdoshlardan biri «Bizlar arab millatdoshlarimiz bilan arab tilida, o'zbek yoki tojik millatiga mansub kishilar bilan ularning tilida suhbatlashamiz», deb ta'kidladi.

Jeynovda yashab kelayotgan arablarning ham aksariyat qismi o'z ona tilini qisman bo'lsa-da, saqlab qolgan. Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi Arabxona qishlog'ida yashovchi arab aholisining ma'lum qismi Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumaniga qarashli Jeynov qishlog'idan ko'chib kelib, mahalliy aholi bilan aralashib, hozirgi kunda o'zbeklashib ketgan [Dala yozuvlari 2012].

Darhaqiqat, arablarning asosiy qismi davrlar o'tishi bilan o'z ona tilini unutishgan. Masalan, Navoiy viloyati hududida joylashgan Katta Arabxona, Arabxona qishlog'ida va yurtimizdagi boshqa arablar yashab kelayotgan qishloqlarda arab tili unutilgan bo'lib, o'zbek tilida suhbatlashishadi. Bu ichki va tashqi ta'sirlar natijasidir.

Jeynov arablarining shevasida qadimgi Mesopotamiya

aholisi tiliga xos xususiyatlar uchraydi, ular badaviylar nutqida ham kuzatiladi. Mesopotamiya shevasi Markaziy Arabiston badaviylari nutqiga juda yaqin turadi. Jugari lahjasi esa uzoq asrlardan beri saqlanib keladi. Jugarilik arablar arab tili bilan bir qatorda tojik va o'zbek tillarini ham biladilar, lekin ular o'zaro arab tilida gaplashadilar [Rajabov 2012, 139] (1-jadval).



1-jadval.

O'zbekistonda istiqomat qilayotgan arabning 1/3 qismi tojik tilida ham muloqot qila olishini etnosotsiologik tahlillar orqali ko'rish mumkin. Bu til bilish ko'proq arablarning yashaydigan hududlariga bog'liq. Buxoro viloyati hududida joylashgan Chahdari va Jugari qishloqlarining bir-biridan ajralib turadigan jihati bu – ularning shevasidagi farqdir. Bunga sabab, Chahdarida o'zbek va tojiklar ko'pchilikni tashkil qilishidir. Ularning nutqida o'zbekcha, tojikcha so'zlar ko'p uchraydi. Jugarida esa ko'proq arab tili saqlanib qolgan. Masalan, Chahdarida «qaymoq» deb aytilsa, Jugarida «qishma» deb aytiladi [Dala yozuvlari 2012].

O'zlarini arab deb hisoblash O'zbekistonning juda ko'p hududlarida uchraydi. Tojikiston yoki O'zbekistonning ayrim qishloqlarida arab tilida gaplashadigan qishloqlar ham bor. Biroq, ularning tilini ikki asosiy lahjaga ajratish mumkin. Birgina O'zbekistondagi arablar, ya'ni, Buxoro va Qashqadaryo viloyatida joylashgan arab qishloqlarida ikki xil shevada gaplashiladi. Buxoroda o'zbek va tojik tili shevalari ustun bo'lsa, Qashqadaryoda esa o'zbek va qisman turkman shevalarining ta'siri seziladi.

«Arablar islom aqidalarini mahalliy millat ongiga singdirish bilan birga tub aholining ko'pgina urf-odatlarini ham o'zlashtirib oldilar, bu esa qadim an'analarning assimilyatsiyaga kirishuv jarayonini tezlashtirdi» [Bibikova 2008, 226–258].

Etnik o'zlikni anglash jarayoni

Sovet davri tadqiqotchilari tomonidan olib borilgan dala tadqiqotlari natijasida bu zaminda yashab kelayotgan arablarning bir necha shevada gaplashishlari aniqlangan. Ayniqsa, Buxoro shevasida gapiradigan 400 ga yaqin katta va kichik arab oilalar bo'lganligi qayd qilingan. Bu kabi holat yillar o'tishi natijasida o'zgarib kelgan. Ayniqsa hozirgi kunga kelib O'zbekistonda istiqomat qilib kelayotgan arab oilalarida o'zbeklashish jarayoni davom etib kelayotganini e'tirof etish mumkin. Arablarning yirik qismlari mahalliy aholi tarkibiga singib ketgan. Jeynov, Jugari, Chahdari va Arabxona qishloqlarida arab tilida gaplashuvchi arablar kamchilikni tashkil etadi. Jugarida esa mahalliy aholining asosiy qismi uyda arabcha gapirib, tilimizni saqlab qolganmiz, deyishadi.

Milliy tiklanish va etnik o'zlikni anglash masalasi o'tmish bilan bog'liq, ya'ni sobiq sho'rolar hukmronlik qilgan 70 yildan ziyod vaqt ichida arablarning etnomadaniyati, ma'naviyati (axloqi, dini, udumlari, huquqiy ongi va hokazo)dan ma'lum darajada mahrum etildi. Bugungi kunda janubi-g'arbiy hududda istiqomat qilib kelayotgan arablar mustaqillikning dastlabki yillarida arabcha maktablar tashkil qilib, o'sha yerda tahsil olishgan. Maktablar uchun arab imlosidagi darslik, lug'at va badiiy asarlar chop etilgan. Biroq keyingi yillarda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar natijasida arab tiliga ixtisoslashgan maktablar tugatilgan.


Ma'naviy qadriyat va etnik o'zlikni anglash barqarorlik, taraqqiyotning bosh omili bo'lib, xalq ongi o'sishi hamda turmush tarzi madaniyatining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonning turli hududlarida yashovchi arablarning katta qismi chorvachilikka qulay bo'lgan cho'l, chalacho'l va tog' mintaqalarida yashab kelmoqdalar. Ular o'troq shahar va qishloq aholisi bilan har tomonlama kuchli aloqalarni o'rnatgan. Jeynov, Jugari, Chahdari qishlog'idagi arablarning turmush tarzi va etnik o'zlikni anglashdagi asosiy omillaridan biri shundaki, ularda an'anaviy jun, mato, arabi gilam, arqon, bo'yra to'qish kabi kasb-hunarlar qadim zamonlardan beri davom etib kelmoqda.

O'zbekiston arablarining qaysi tilda ko'proq muloqot qilishlari asosida tavsiflagan holda xulosalaydigan bo'lsak, quyidagicha manzara namoyon bo'ladi: 1) o'zbek tilida so'zlashuvchi aholi; 2) tojik tilli aholi; 3) arab tilli aholi (faqat Jugari va Jeynov qishloqlarida) [Rajabov 2012, 157–158]. Biroq biz ilmiy tadqiqot jarayonida bir narsaga amin bo'ldikki, Vobkent tumanida joylashgan Arabxona va G'ijduvon tumaniga qarashli Chahdari kabi qishloqlarda ham arab

tili ma'lum darajada saqlanib qolgan.

O'zbekiston arablarining etnomadaniy identikligini o'rganishda shu zaminda yashab kelayotgan o'zbek xalqining tili qanday darajada ta'sir etganligini aniqlash maqsadida respondentlarga «O'zbek tilini qay darajada bilasiz?» deb savol berilganda, axborotchilarimizga tarqatilgan anketalar tahlili natijasida quyidagi xulosaga kelish mumkin. Arablarning 73 foizi yaxshi bilishlarini aytsa, 27 foizi a'lo bilishlarini ta'kidladi. Arablarning o'zbek tilini bilishi va shu xalqning tarkibiy ajralmas qismi sifatida qarashi aniqlandi. Chunki ming yildan ko'proq davr mobaynida o'zbek va arab xalqlari bir hududda iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy vaziyatlarda yagona xalq darajasida bir tilda muloqot olib borgan.

O'zbekiston arablarining ko'pchiligi arab tilini unutib o'zbek tilini o'zlarining ona tili sifatida e'tirof etishadi. Hozirgi zamonaviy arab yoshlarining til bilish omiliga e'tibor beradigan bo'lsak, ular ingliz, nemis, rus kabi tillarini puxta o'rganib kelishmoqda. 2011–2019 yillarda olib borilgan dala tadqiqotlarimiz tahlili natijasida ma'lum bo'ladiki, arablarning bugungi kundagi etnik o'zlikni anglash hissi, qisman bo'lsa-da, til, milliy kiyimlari, qiziqqonligi hamda antropologik qiyofasida saqlanib qolgan. Arablarning asosiy qismi o'zbek tilini birinchi darajali tili deb e'tirof etishadi va shu tilda gaplashadilar. Arablar oila davrasida ham asosiy muloqot tili sifatida (91 foiz) o'zbek tilini ko'rsatgan (2-jadval).




2-jadval.

Kam ko'rsatkich bo'lsa-da, arab va rus tillarini ham muloqot tili sifatida ko'rsatgan. Sovet hokimiyati davrida Yevropa xalqlari, ayniqsa, rus xalqining madaniyati, adabiyotiga ta'zimkorlik yildan-yilga ortib boraverdi. Milliylik haqida gapirish esa jinoyat bilan barobar deb qaraldi. Bu haqida og'iz ochgan o'qituvchiga millatchi, degan tamg'a bosildi [Чориев, Қаноатова 1992, 23]. Yoshlar turmush tarzida ham Yevropa xos odatlar, muomala va harakatlarida

ruscha xarakter vujudga keldi. O'z milliy tili, madaniyati, urf-odatlarini mensimaslik, o'z millatining kelajagi, milliy ehtiyojlariga befarq qarash avj olib ketdi. Buning natijasida har bir xalqni milliy xarakterida milliy ruh so'nib, yangicha yevropa milliy madaniyati ustunlik qila boshladi.

Etnoslararo munosabatlarda til asosiy vosita hisoblanadi. Tabiiy geografik hududda yashovchi hamda etnik jihatdan ko'pchilikni tashkil etuvchi o'zbek, tojiklar bir-birlarini yaxshi tushunganlar. Arablar kirib kelishi bilan esa bu xalqlarning tili va diniy e'tiqodining birligi, an'analarida musulmon diniy marosimlar ta'siri kuchaygan. Asrlardan beri o'z ona tilini unutmasdan saqlab qolish ham bugungi kunda o'rganilishi lozim bo'lgan jarayonlardan biri. Jeynov va Arabxona qishloqlaridagi mahalliy arablardan so'rovnomalar olindi. Uning tahlili quyidagicha: Jeynov qishlog'ida yashab kelayotgan arablarning yirik qismi o'z ona tili arab tilini saqlab qolgan. Kattaqo'rg'on tumani Arabxona qishlog'idagi arablar o'zbeklashib, o'zbek tilini qabul qilishgan (3-jadval).



3-jadval.

Respondentlardan «Arab tilini va madaniyatini qayta tiklash g'oyasiga qanday qaraysiz?» deb so'ralganda, 48 foizi ijobiy, 7 foizi salbiy, 21 foizi befarqman, 24 foizi «javob berishga qiynalaman» deb javob berishgan. O'zbekiston arablarining yirik qismi o'z ona tili va madaniyatining tiklanishi va qisman bo'lsa-da, arab tilini kelajak avlodga o'rgatish maqsadida asrab, avaylash kerakligini ta'kidlashdi. Ular milliy urf-odatlarga bo'lgan munosabatni jonlantirish va uni o'rganishni joriy qilish kerak deb e'tirof etadi.

Mirishkor tumanidagi Jeynov qishlog'ida, G'ijduvon tumaniga qarashli Jugari, Chahdari, Vobkent tumanidagi Arabxona qishlog'ining qariyalari o'z ona tili, arab tilining saqlanib qolishgani to'g'risidagi ma'lumotlar Sereteli, Volin, Vinnikov [Церетели 1956;

Волин 1941; Винников 1959, 382.] kabi bir qator olimlarning ilmiy ishlarida ham uchraydi. Buxoro viloyatida istiqomat qilib kelayotgan arablarda o'zbek tili bilan birga tojik tili ta'siri ham kuzatiladi.

Milliy qadriyatlarning tiklanishi, mahallalarning an'anaviy faoliyati keng yo'lga qo'yilishiga ham imkon berdi. Mustaqillikning ilk yillarida Baynalmilal madaniyatining tuzilgani muhim hodisadir. Baynalmilal madaniyat har bir xalqning o'tmishdan davom etib kelayotgan an'anaviy marosimlari yo'qolib ketishining oldini olish, asrab qolish hamda uni rivojlantirish maqsadida tuzilgan.

Respondentlardan «Arab xalqining rivojlanishi uchun qanday sharoitlar zarur?» deb berilgan savolga ular quyidagicha javob berishdi: «Milliy madaniyatni qayta tiklash va rivojlantirish» - 27%, «xalqning diniy qadriyatlarini qo'llab-quvvatlash» - 35 %, «tilni qo'llab-quvvatlash» - 17%, «bozor iqtisodiyotini rivojlantirish» - 15%, «tabiiy muhitni sog'lomlashtirish» - 3 foizi, «intizomni mustahkamlash» - 3% deb belgiladilar. So'rovnoma tahlili shuni ko'rsatdiki, 79% respondentlar arab milliy madaniyati, urf-odat va an'anaviy marosimlarni saqlab, kelajak avlodlarga yetkazish lozim, deb hisoblaydi.

Respondentlarga «Qaysi tildagi gazetalarni o'qishni ma'qul ko'rasiz?» deb berilgan savolga ularning javoblari quyidagicha: o'zbekcha - 81%, arabcha - 2%, ruscha - 3%, boshqa tillardagi (tojik, turkman va boshqa) 12%, bir necha tillardagi gazetalarni o'qish 2%.

Amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar alohida bir yosh davri inobatga olinmagan va shu sababli arablarining turli yoshdagi respondentlardan «Qaysi mamlakatlar gazeta va jurnallarini ko'proq o'qiysiz?» degan savolga 83 foizi O'zbekiston, 1 foizi Birlashgan Arab Amirligi, 5 foizi Rossiya, 9 foizi tojik, turkman, 2 foizi «barchasini», deb javob berdi. Respondentlarning 80 foizidan oshiqroq qismi bugungi kunda o'zbek tiliga doir gazeta-jurnallarni o'qishlari ularning matbuot savodxonligida ham o'zbek tili salmog'ining yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Ommaviy axborot vositalari O'zbekistondagi arablarning turmush tarzida katta ahamiyatga egadir. Ko'pchilik bugungi kunda televideniyaning asr mo'jizasi sifatida baholaydi. U inson ma'naviy hayotining ajralmas qismi, cheksiz axborotlar yetkazib beruvchi manba hisoblanadi. «Har qanday televideniya ma'lumot olish manbaidir. Lekin, savol shundaki, u nimaga o'rgatadi?», deb ta'kidlaydi [Зокирова 2002, 43].

Tadqiqotlar davrida «Qaysi mamlakatlar televideniyasini tomosha qilishni afzal deb bilasiz?», degan savolimizga, respon-

dentlarning 74 foizi “O‘zbekiston” telekanali orqali beriladigan ko‘rsatuvlarni ko‘rishlarini ta’kidlagan bo‘lsa, 2 foizi “Arab”, kanallari, 7 foizi “Rossiya”, 8 foizi “tojik va turkman”, 9 foizi turli kanallarni ko‘ramiz, deb javob berdi. Yuqoridagi tahlillarga ko‘ra, 74 foiz respondent o‘zbek tilidagi ko‘rsatuvlarni ko‘rishlarni ta’kidladi.

Respondentlarni katta qismi o‘zlarini «arablar» deb hisoblaydi. Chunki ular ming yillardan beri o‘zlarining etnomadaniy etnik nomini saqlab qolishgan bo‘lsa ham ulardan sizlar qaysi tildagi qo‘shiqlarni ko‘proq tinglaysizlar deb berilgan savolga 80% o‘zbek tilidagi qo‘shiqlarni eshitishlarni ta’kidladi.

O‘zbekistonning janubi-g‘arbiy hududida istiqomat qilib kelayotgan arablar o‘zlarining arab nomi va tilini saqlab qolgan. O‘zbekistonning janubi-g‘arbiy qismida joylashgan arab qishloqlari turmush tarzi va uning o‘ziga xos xususiyatlarida arab tili farqini ko‘rish mumkin. G‘arbiy qismda joylashgan arablarda tojik, o‘zbek va arab tili kengroq tarqalgan. Janubdagi Koson, Po‘lati va unga tutash hududlarda tojik va o‘zbek tilida gaplashadi. Arab tili «arab shevasi»ni ikki hudud misolida ko‘rish mumkin. Yuqorida nomlari zikr etilgan qishloqlar to XX asr oxirlariga qadar mahalliy xalqlar bilan yaqin munosabatda bo‘lmagan. Arablarning tabiyatida qiziqqonlik ko‘proq kuzatiladi. Balki shu sababli tub yer xalqlar bilan unchalik yaqin munosabatda bo‘lishmagan. Arablar qishloq va shaharlarda ming yillardan beri istiqomat qilib kelganlar. Ammo shahardagi arablar bir-birlariga unchalik ham yaqin bo‘lmagani sababli bo‘lsa kerak, ular arab tilini unutib yuborishgan. Jeynov va Jugari qishloqlarida yashovchi arablarning tili yaxshi saqlanib qolgan.

Arab yozuvi sovet mustamlakasi davrida isloh qilingan bo‘lsa-da, XX asr o‘rtalaridan boshlab arablarning «o‘zbeklashish» jarayoni jadallashgan. Arab tilining yo‘qolishiga asosiy sabablardan biri 1929-yildagi lotin yozuviga o‘tish jarayonini qayd etish mumkin. Biroq bu jarayon tubdan arab tilining yo‘qolib ketishiga unchalik ham ta’sir etmadi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida milliy madaniyatni asrab-avaylash maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Jeynov qishlog‘ida arab tiliga ixtisoslashgan maktab ochilib, bir necha yil arab tili o‘qitildi. Aynan Toshkent davlat Sharqshunoslik institutida maxsus arab tilini o‘rgatuvchi yo‘nalishlar va kurslar tashkil etildi. Shu o‘rinda bir narsaga katta ahamiyat qaratish lozim, o‘sib-ulg‘ayib kelayotgan kelajak avlod vakillariga etnik o‘zligini singdirishda, milliy an’anaviy urf-odatlarini kelajak avlodlarga yetkazishda oila asosiy bo‘g‘in hisoblanadi.

Xulosa

Kuzatishlar natijasida Jeynov, Jugari, Chahdari, Arabxona va boshqa arab qishloqlarida arab tilining ma'lum darajada saqlanib qolingani aniqlandi. Jeynov qishlog'ida yashovchi arablarning til jihatiga o'zbek, tojik, turkman kabi xalqlar ta'siri seziladi. Jugari qishlog'ida esa aksincha ko'proq tojik tilini ta'siri yuqori darajada ekanligi ko'rinadi. Shuningdek, atrofdagi o'zbek, tojik, turkmanlar ham arablarning til xususiyatlariga kiyim-kechaklari, hunarmandchilik, gilam to'qish hamda chorvachilik leksikalari orqali ta'sir o'tkazganlar.

Hozirgi kunda O'zbekistondagi arab identikligining shakllanishida arablarning o'ziga xos tili, musiqa va raqs san'ati faqat Jeynov qishlog'ida juda yaxshi saqlangan. Bu qishloqda tashkil etilgan «Al-arabiy» ansamblining boy repertuari misolida yaqqol kuzatiladi.

Janubiy va G'arbiy O'zbekistonda joylashgan arab qishloqlaridagi arablarning tili Arabiston arablarining tilidan tubdan farq qiladi. Chunki bir necha asrlar davomida milliy tilning unutilishi tabiiy holatdir.

Adabiyotlar

- Бибикова, О. 2008. «Арабы». *Историко-этнографические очерки*, 226–258. М.: Хранител.
- Болшаков, О. Г. 1982. *Очерки истории арабской культуры*, X–XI вв. М: Наука.
- Бурыкина, Н. Н., Измайлова, М. М. 1930. *Некоторые данные по языку арабов кишлака Джугары Бухарского округа и кишлака Джейнау Кашкадаринского округа Узбекской ССР*. Записки коллегии востоковедов. Т. 5. Л.
- Искандаров, Ш. 2011-2019. *Дала ёзувлари*. Қашқадарё, Сурхондарё, Самарқанд, Навоий, Бухоро вилоятларидаги қишлоқларида 2011-2019 йиллар давомида олиб борилган дала тадқиқотлари натижалари.
- История народов Узбекистана*. 1950. Ташкент: Узбекистан.
- Козлов В. И. 1967. «О понятии этнической общности». *Советская этнография* 2: 111-114.
- Кахарова, М. 2009. *Ўзбек этнографизмларининг системавий тадқиқи*. Тошкент.
- Наршахий, Муҳаммад. 1991. *Бухоро тарихи*. Тошкент: Камалак.
- Қаҳҳоров, Н. 2014. *Ўзанидан ажралган дарё*. Тошкент: BILIK-PRINT.
- Ражабов, Р. 2012. *Ўзбекистондаги араблар тарихи ва этнографияси*. Тошкент: Шарқ.
- Ражабов, Р. 2011. *Ўрта Осиё этномаданий жараёнларида араблар*. Тошкент:

Янги аср авлоди.

- Рўзимуродов, Т., Райҳонов, Э., Ҳамроев, С. 2000. *Тақдир сўқмоқларида Пулати қишлоғининг ўтмиши ва буғунига бир назар*. Қарши: Насаф.
- Саидов, М., Равшанов, П. 1996. *Жейнов тарихи*. Тошкент: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти.
- Церетели, Г. В. 1956. *Арабские диалекты Средней Азии*. Т. I. Бухарский арабский диалект. Тбилиси.
- Винников, Я. Р. 1959. «Современное расселениуа народов и этнографических групп в Ферганской долине». *Среднеазиатский этнографический сборник II*. Москва.
- Волин, С. А. 1941. «К истории среднеазиатских арабов». *Труды второй сессии ассоциации арабистов*. Москва.
- Зокирова К. 2002. “Телевиденининг ёшлар маънавиятига таъсири”. *Халқ таълими* 3: 43-46.
- Чиковани, Г. Г. 1988. *Морфологическауа структура Кашкадаринского диалекта арабского языка*. Тбилиси.
- Чиковани, Г. Г. 1988. «Некоторые вопросы истории и языка среднеазиатских арабов». *Россия и арабский мир* 3: 70–77.
- Чориев, А., Қаноатова, Ф. 1992. *Таълим тизимининг интеллектуал қудрати*. Тошкент: Меҳнат.

Referemces

- Bibikova, O. 2008. «Araby». *Istoriko-jetnograficheskie ocherki*, 226–258. М.: Hranitel.
- Bolshakov, O. G. 1982. *Ocherki istorii arabskoj kultury*, X–XI vv. М: Nauka.
- Burykina, N. N., Izmajlova, M. M. 1930. *Nekotorye dannye po jazyku arabov kishlaka Dzhugary Buharskogo okruga i kishlaka Dzhejnau Kashkadarinskogo okruga Uzbekskoj SSR*. Zapiski kollegii vostokovedov. T. 5. L.
- Iskandarov, Sh. 2011-2019. *Dala jozuvlari*. Qashqadarjo, Surhondarjo Samarqand, Navojj, Buhoro viloyatlaridagi qishloqlarida 2011-2019 jillar davomida olib borilgan dala tadqiqotlari natizhalari.
- Istorija narodov Uzbekistana*. 1950. Tashkent: Uzbekistan.
- Kozlov V. I. 1967. «O ponjatii jetnicheskoy obshhnosti». *Sovetskaja jetnografija* 2: 111-114.
- Kaharova M. 2009. *Uzbek jetnografizmlarining sistemavij tadqiqi*. Toshkent.
- Narshahij, Muhammad. 1991. *Buhoro tarihi*. Toshkent: Kamalak.
- Qahhorov N. 2014. *Uzanidan azhralgan darjo*. Toshkent: BILIK-PRINT.
- Razhabov, R. 2012. *Uzbekistondagi arablar tarihi va jetnografijasi*. Toshkent: Sharq.
- Razhabov, R. 2011. *Urta Osijo jetnomadanij zharajonlarida arablar*. Toshkent: Jangi asr avlodi.
- Ruzimurodov T., Rajhonov, J., Hamroev, S. 2000. *Taqdir suqmoqlarida Pulati qishlogining utmishi va buguniga bir nazar*. Qarshi: Nasaf.
- Saidov M., Ravshanov P. 1996. *Zhejnov tarihi*. Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbijot nashriyoti.
- Cereteli, G. V. 1956. *Arabskie dialekty Srednej Azii*. T. I. Buharskij arabskij dialekt. Tbilisi.
- Vinnikov, J. R. 1959. «Sovremennoe rasseleniya narodov i jetnograficheskikh grupp v Ferganskoj doline». *Sredneaziatskij jetnograficheskij sbornik II*. Moskva.

- Volin, S. A. 1941. «K istorii sredneaziatskih arabov». Trudy vtoroj sessii asociacii arabistov. Moskva.
- Zokirova K. 2002. "Televideniening joshlar manavijatiga tasiri". *Halq talimi* 3: 43-46.
- Chikovani, G. G. 1988. *Morfologicheskaya struktura Kashkadarinskogo dialekta arabskogo jazyka*. Tbilisi.
- Chikovani, G. G. 1988. «Nekotorye voprosy istorii i jazyka sredneaziatskih arabov». *Rossija i arabskij mir* 3: 70-77.
- Choriev, A., Qanoatova, F. 1992. *Talim tizimining intellektual qudrati*. Toshkent: Mehnat.

Muallif haqida: *Iskandarov Sherzod Abdug'anievich* – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Toshkent tibbiyot akademiyasi Ijtimoiy fanlar kafedrasida.

Iqtibos uchun: Iskandarov Sh. A. 2020. "O'zbekiston arablarining til xususiyatlari va etnolingvistik o'zgarishlar". *O'zbekiston: til va madaniyat* 2: 88-101.

About the author: *Iskandarov Sherzod A.* - Doctor of Philosophy (PhD) in History, Associate Professor, Department of Social Sciences, Tashkent Medical Academy.

For citation: Iskandarov Sh. A. 2020. "Linguistic features and ethnolinguistic changes of the Uzbekistan Arabs". *Uzbekistan: Language and Culture* 2: 88-101.